

Uzbekistan Airways Jakarta shahrida ASTINDO Fair 2024 sayyohlik yarmarkasida ishtirok etdi!

2024 5 Mart

O'zbekiston Respublikasi milliy aviakompaniyasining Indoneziyadagi eng mashhur sayyohlik yarmarkalaridan birida ishtiroki biznes va turizm sohasi vakillari bilan bir qator uchrashuvlar o'tkazish, O'zbekistondagi madaniy-tarixiy turizmning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish va respublikamizga potentsial sayyohlarni jalb qilish imkonini berdi.



Eslatib o'tamiz, 2024-yil aprel oyidan boshlab Uzbekistan Airways aviakompaniyasining Toshkentdan Jakartaga muntazam aviaqatnovlari haftasiga 2 marotaba amalga oshiriladi.



